



Milliy identiklikning polietnik jamiyatdagi o'ziga xos xususiyatlari

O'sarqulov Oybek Mirodilovich

Farg'ona davlat universiteti

akademik litseyi, tarix fani o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada milliy identiklikning falsafa, etnologiya, sotsiologiya va siyosatshunoslik, psixologiya fanlaridagi o'zbekcha lug'aviy atalishi "o'xshashliklik", "masublik", "monandlik" kabi tushunchalar bilan bashariyatning ijtimoiy, ma'naviy, ahloqiy munosabatlarga kirishishida qiyosiy tahlil etildi. Identiklikning rivojlanish bosqichlari va ilmiy asosi davriy ahamiyat kasb etib, unda tarixiy va ijtimoiy xotira psixologik iroda, sotsial xarakter tushunchalari tarixiy hamda zamonaviy qarashlarni o'ziida ifodalagan falsafiy va sotsialogik tasniflar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Milliy indentiklik, jamiyat, antropologiya, etnik indentiklik

O'zbekistondagi psixologiya etnologiya, sotsiologiya yoki ijtimoiy antropologiya fanlari yo'nalishlarida ikmiy tadqiqotlar olib borayotgan mutaxassislar orasida identiklik, milliy identiklik, etnik identiklik, ijtimoiy identiklik, diniy identiklik, gender identikligi, til identikligi va shu bilan bog'liq zamonaviy so'zlarga batafsil tariflar ishlab chqilmagan, mavjudlari ham yakuniga yetkazilmagan. Ularning chegaralari, vazifalari, tadqiqot ishlari, baholash bo'yicha ham uslubiy tavsiyalar takomillashtirilmagan. Shu tufayli tadqiqot asosan "identiklik" mavzusiga tayangan holda amalga oshirildi.



Ushbu atamaning paydo bo'lishi XX asrning 40-50 yillarida amerikalik psixanalitiklar E.Erikson nomi bilan bog'liq. U identiklikni o'ziga xos ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tushuntirish jarayonida avvalo, shaxs o'zligining eng tubida joylashgan induvudial identiklikni tadqiq etadi. E .Erikson uning tuzilishini o'zaro to'ldiruvchi va har biri bilan birga ishlovchi qoidalarga asoslangan chunonchi tashqi o'zgarishlarga qaramay o'zigini saqlab qoladigan "ego-identiklik" deb nomlaydi.

"Milliy identiklik" bevosita etnologiya va antropologiya fanlari bilan chambarchas bog'liq, u ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi, tili, urf odati, an'analari, milliy qadriyatlarini o'zida aks ettirgan ijtimoiy uyushgan jamiyatlar bilan bog'liq tushunchadir. Tadqiqot ishi bevosita koreys identigligi bilan uzviy bog'liq bo'lganligi uchun una etnik birlik va guruhlariga ham e'tabor qaratildi. Etnolog A.Ashirovnin ta'kidlashicha, "Etnografik guruh ma'lum bir etnosning (elatning yoki millatning ajralmas qismi, uning tarkibidagi bo'linmalardan biri) qismi bo'lib, o'zining ayrim xususiyatlari: til lahjasi, xo'jalik faoliyati va turmush tarzining ba'zi tomonlari bilan farq qilgan". Etnografik guruh, odatda, bir qabilaning, elatning yoki millatning etnik hududining kengayishi, ya'ni bir guruhning ikkinchi bir xalq bilan aralashib, boshqa yerga borib, shu yerdagi xalq tarkibiga kirib, u bilan birga yashab qolishi natijasida vujudga keladi. Akademik Ahmadali Asqarovning ta'kidlashicha "Etnografik guruh ma'lum bir etnosning ya'ni elat-xalqning ajralmas qismi uning tarkibidagi bo'linmalardan bo'lib o'ziga hos ti lahjasi, ho'jalik faoliyati, turmush tarzining ba'zi bir tomonlari bilan muayyan ellatdan farq qiladi.

Etnik identiklik, insonning jamiyatdagi o'rnini va boshqa guruhlar va sinflar bilan o'zaro munosabatlarini belgilaydi. Etnik guruhlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash, ularning madaniy va ijtimoiy yondashuvlarini tushunishga yordam beradi. Biroq, etnik identiklik dinamik bir tushuncha bo'lib, u vaqti-vaqti bilan o'zgarib boradi va globallashuv, migratsiya va ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda yangi shakllarni oladi. Globallashuv davrida milliy xarakter va etnik identiklikka bo'lgan yondashuvlar o'zgarib bormoqda.



Global aloqalar, texnologik taraqqiyot va madaniy almashinuvlar, milliy va etnik identikliklarni yangi shakllarda namoyon bo'lishiga olib kelmoqda.

Idiyentiklik ijtimoiy va madaniy jihatidan shakllanib borar ekan insonga o'z ehtiyojlarini qondirish va jamiyatda o'z o'rnini topishga imkon beradi. Bu o'z navbatida, unga eng o'g'ir azob butkul yolg'izlik va shubhalardan xalos bo'lishga yordam beradi.

Etnik identiklik – ijtimoiy va milliy va madaniy o'ziga xoslikning elementlaridan biri bo'lib, ko'plab etnik guruhlariga nisbatan ijtimoiy makonda shaxsning o'z-o'zini anglashining kognitiv-emosional jarayonining natijasidir. Bu nafaqat xabardorlik, balki o'zining etnik jamoaga mansubligini idrok etish, tushunish, baholash hamdir. Etnik o'ziga xoslikning yetuk darajasi esa, sotsializatsiya jarayonida olingan askriptiv darajasini emas, balki qurilgan tasnifga mos keladi va asosan shaxsning ijtimoiymadaniy yo'nalishi bilan belgilanadi.

Identiklikni falsafa fani doirasida tadqiq etilishi uning tadqiqot obyektni shaxsdan jamiyatga o'zgartirib yuboradi. Sotsiologik qarashlarga ko'ra "identiklik ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadigan artefaktdir". M. Zokorvatnayaning fikriga ko'ra insonning o'zligini- uning jamiyat bilan o'zaro munosabatini va aloqalarini shakllantirib boradi.

Identiklikni falsafiy qarashlarini faylasuf olimlar va sotsiologlar ijtimoiy antropologiya sohasida izohlashga harakat qilishgan. Bu o'z navbatida identiklikni ham psixologik, ham ijtimoiy, ham falsafiy nuqtai nazarlarning kesishmasida nazar tashlashga imkon beradi. Psixologik-falsafiy qarashlarga asosan, identiklikning tashqi va ichki o'lchamlari doimo ta'sir etib hamda bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega. Qolaversa identiklik nafaqat jamiyat tomonidan balki ruxiy-ma'naviy tomondan ham tavsiflanib boriladi.



“Milliy idiyentiklik” nazariyasi B.Andrson nazariyasiga koʻra mavjud komponentlarni 3 ta asoiy bosqichga boʻladi.

1. Kognitiv komponent — shaxsning oʻz millatiga xos xususiyatlar haqidagi bilimi va oʻzini shu millatning aʼzosi sifatida anglash darajasi; 2. Affektiv komponent — oʻz millatiga va boshqa millatlarga nisbatan mavjud boʻlgan emotsional munosabat; 3. Boshqaruv (xulq-atvor) komponent — oʻz millatiga xos xulq-atvor meʼyorlariga muvofiq yashash va harakat qilish tushuniladi

Amerikalik filosof tadqiqotchi Maydon nazariyasining yaratuvchisi Kurt. Levinning fikricha, subyekt (indivud yoki davlat) oʻzining atrof-muhiti (E — tashqi muhit) va hayotiy makoni (L — life) bilan chambarchas bogʻlangan. Uning nazariyasiga koʻra, identiklik (I — identity) faqatgina atrof-muhitni tahlil qilish orqali tushunilishi mumkin: bu yerda geografik, tarixiy, diniy, til va boshqa omillar inobatga olinadi. Ushbu yondashuv quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$I = E + L$ Yaʼni, davlat identikligi — bu moddiy (E, yaʼni hudud, iqlim, tabiiy resurslar) va nomoddiy (L, yaʼni sivilizatsiya, madaniyat, mafkura) omillarning aksidir. Identiklikdagi oʻzgarishlar atrof-muhitdagi oʻzgarishlar bilan chambarchas bogʻliq: masalan, shaxs shahardan qishloqqa, yoki viloyatdan poytaxtga koʻchsa, uning identikligida oʻzgarishlar yuz beradi. Xalqaro munosabatlar kontekstida bu omillarni geosiyosat (E) va madaniyatlararo psixologiya (L) fanlari oʻrganadi.

Ushbu fikrlarga asoslanib ilmiy ishimizda koreys milliy idiyentikligini tarkibiy qismlarini quyidagicha sinflarga ajratdik. a) hissiy-ruhiy element (unsur) b) aqliy-idrok komponenti (unsur) c) muomala-munosabatlar komponenti (unsur). Oʻz oʻrnida hissiy-ruhiy element (unsur); milliy gʻurur, millatparvarlik, milliy ong, ruhiyat, milliy mintalitet b) aqliy-idrok komponenti (unsur(lar) milliy tafakkur, milliy mafkura c) muomala-munosabatlar komponenti (unsur) vatandoshlik nuqtai nazari, baynalminallik, bagʻriknglik,



tolerantlik, diaspora milliy jamoa kabi tushunchalar orqali ilmiy asos va faktorlarni ishlab chiqdik.

Bizning fikrimizcha Kelajakda milliy va etnik identiklik o'rtasidagi munosabatlar qanday rivojlanadi? Kamida uch xil rivojlanish senariysini taxmin qilish mumkin:

1. Globallashuv davrida milliy identiklik ustuvor bo'lib qoladi. Dunyo butunlay davlatlarsiz tasavvur qilinishi ancha mushkul; aksincha, davlatlar sonining 400 taga yoki undan ham ko'proqqa ortishi ehtimoldan xoli emas. Bunday sharoitda etnik identiklik ikkilamchi, bo'ysunuvchi rolni o'ynaydi.

2. Globallashuv ta'sirida milliy identiklik va u bilan birga davlat institutlari ham asta-sekin yo'qoladi. Ularning o'rnini boshqa identiklik shakllari — sivilizatsion, oilaviy, ehtimol, kosmopolit identikliklar egallaydi. Etnik identiklik esa globallashgan yangi dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi, chunki aynan u o'zgaruvchan global muhitda barqarorlik va izchillikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

3. Yangi shakllanayotgan dunyoda milliy va etnik identiklik tinch-totuv ravishda birga yashaydi, bir-birini to'ldiradi va boyitadi. Biroq bu eng uyg'un variantning amalga oshishi uchun davlatlar tomonidan chuqur o'ylangan va uzoqni ko'zlagan milliy siyosat yuritilishi zarur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Ahirov.A Etnologiya .Toshkent. “Yangi nashr “ 2014 B-126
2. Asqarov A O`zbek xalqining kelib chiqish tarixi Toshkent .: “O`zbekiston” B-21
3. Madayeva Sh.O. Identiklik antropologiyasi. Toshkent, —Noshir||, 2015. – B. 41-42.



4. Qodirova .X.B Qoraqolpoq xalqining milliy identiklik xususiyatlari sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori B-21
5. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. М.: Прогресс, 1996. С. 59
6. М Исомиддинов Историческая антропология С 159